



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 234 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo'riyeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G'iyosaliyevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессии социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqlonova	



IJTIMOIIY IQTISODIY EHTIYOJLAR VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Raxmonova Feruza Musaqllovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat
arxitektura-qurilish universiteti,
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti,
Biznes boshqaruvi kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: feruzaraxmonova1976@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning shakllanish omillari, ularning iqtisodiy tizimlar rivojlanishidagi funksional o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mualliflar ijtimoiy talablar va resurslar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni yoritgan holda, zamonaviy iqtisodiy o'sish modelida ehtiyojlarni aniqlash hamda ularni samarali qondirish mexanizmlarini ko'rib chiqadilar. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda aholi ehtiyojlarining strategik rolga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiy siyosat, resurslar taqsimoti, aholi farovonligi, iqtisodiy o'sish.

Abstract: This article examines the determinants of socio-economic needs and their functional role in the development of economic systems. The authors explore the interrelation between social demands and resource allocation, emphasizing the identification and effective satisfaction of needs within contemporary economic growth models. Special attention is paid to the strategic importance of addressing population needs in the formulation of socio-economic policies.

Key words: social needs, economic policy, resource distribution, population welfare, economic growth.

Аннотация: В статье рассматриваются факторы формирования социально-экономических потребностей и их функциональная роль в развитии экономических систем. Авторы анализируют взаимосвязь между социальными запросами и распределением ресурсов, акцентируя внимание на выявлении и эффективном удовлетворении потребностей в рамках современных моделей экономического роста. Особое внимание уделяется стратегической значимости учета потребностей населения при разработке социально-экономической политики.

Ключевые слова: социальные потребности, экономическая политика, распределение ресурсов, благосостояние населения, экономический рост.

KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni o'rganish dolzarb masaladir, chunki ular iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liqdir (masalan, yuqori malakali ishchi kuchi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi). Global tengsizlik muammolari – qashshoqlik, ta'lim va tibbiyotga kirish imkoniyatlari – ularni qondirish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga qaratilgan islohotlar, jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining modernizatsiyasi, ushbu mavzuning amaliy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar inson va jamiyatning moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy hayot sifatini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Ular nafaqat individual, balki milliy iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayveri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda aholining turmush darajasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash kabi ehtiyojlarni qondirish davlatlarning barqaror rivojlanish strategiyasining markazida turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar inson va jamiyat hayotining muhim qismi bo'lib, ularning tushunilishi va qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Ehtiyojlarning cheksizligi va ularni qondirish uchun resurslarning cheklanganligi iqtisodiyotning asosiy muammosini tashkil etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy holat, ta'lim darajasi, daromadlar va boshqa omillar ehtiyojlarning shakllanishi hamda ularning qondirilish darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar inson faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida iqtisodiy taraqqiyotga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bu ehtiyojlar iqtisodiy resurslarning taqsimlanishiga, ishlab chiqarish jarayoniga va davlat siyosatining shakllanishiga bevosita bog'liq. Ushbu jihatlar bir qator olimlarning tadqiqotlarida nazariy



va empirik jihatdan o'rganilgan. Masalan, A. Maslow tomonidan ilgari surilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni inson motivatsiyasining bosqichlari sifatida tahlil qiladi. Bu yondashuv iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda aholining asosiy ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladi.

A. Sen esa iqtisodiy rivojlanishni inson salohiyatini kengaytirish bilan bog'laydi. U o'zining "Insoniy taraqqiyot" konsepsiyasida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni faqat moddiy resurslar bilan emas, balki sog'liqni saqlash, ta'lim va erkinlik kabi omillar bilan ham bog'laydi. Shu jihatdan, ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishi nafaqat individual darajada, balki jamiyatdagi umumiy farovonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

M. Friedman bozor iqtisodiyoti sharoitida ehtiyojlar qondirilishining mexanizmlarini bozor signallari orqali izohlaydi. Unga ko'ra, talab va taklif munosabatlari orqali ijtimoiy ehtiyojlar aniqlanadi va resurslar samarali taqsimlanadi. Biroq, davlatning ijtimoiy funksiyasi kuchsiz bo'lsa, bu ehtiyojlar to'liq qondirilmaligi mumkin.

P. Streeten tomonidan ilgari surilgan "Basic Needs" yondashuvi esa, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarbdir. U odamlarning asosiy ehtiyojlari – oziq-ovqat, uy-joy, kiyim-kechak, sog'liqni saqlash va ta'lim – qondirilmagan ekan, iqtisodiy rivojlanish haqiqiy natijalar bermasligini asoslaydi. Bu yondashuv BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) siyosatida keng qo'llaniladi.

Shuningdek, B. T. Uzboyev va O'zbekiston iqtisodchilarining tadqiqotlarida ijtimoiy ehtiyojlar va ularning hududiy o'ziga xosliklari, milliy ijtimoiy siyosat bilan bog'liq holatlari tahlil qilingan. Ular iqtisodiy resurslarning mintaqaviy taqsimoti, aholi bandligi, ijtimoiy himoya tizimi va uy-joy siyosati orqali ehtiyojlar darajasining o'zgarishini ko'rsatib beradilar.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ko'p qirrali yondashuvlar orqali tahlil etiladi. Bu yondashuvlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va ularning rivojlanishdagi o'rmini aniqlash maqsadida statistik ma'lumotlar, hukumat hisobotlari hamda xalqaro tashkilotlar nashrlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar deskriptiv va komparativ usullar orqali tahlil etilib, ehtiyojlar dinamikasi va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar inson hayoti va faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular nafaqat shaxsiy manfaatlar, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ehtiyojlar – bu kishilar va jamiyat tomonidan zarur deb topilgan moddiy va nomoddiy talablarning majmuidir. Ular kishilarni faoliyatga undovchi ichki motivatsion kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar – bu inson va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan belgilanadigan zaruriyatlar to'plamidir. Bu ehtiyojlar insonning yashashi, mehnat faoliyati, o'z-o'zini anglash, o'qish, ijtimoiylashish va rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga doir 2025-yil 11-martdagi "Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 158-son¹ qarori mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu qarorning asosiy maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni samarali qondirish orqali fuqarolar farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Qarorga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, birinchi navbatda, aholi bandligini ta'minlashga, yangi ish o'rinlari yaratishga hamda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan.

Qarorning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Aholi bandligini oshirish. Bandlikni ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini yaratish va mehnat bozorini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Yangi ish o'rinlari ochilishi va iqtisodiy faoliyatning kengaytirilishi aholi ehtiyojlarini qondirish hamda iqtisodiy rivojlanishning poydevori bo'ladi.

Kambag'allikni qisqartirish. Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar aholi orasida ijtimoiy tenglikni ta'minlash, kam ta'minlangan guruhlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o'sishning muhim omilidir.

Ta'lim va malaka oshirish. Fuqarolarni ta'lim va kasbiy tayyorgarlik bilan ta'minlash orqali mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchini yaratish mumkin. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish va iqtisodiy rivojlanishga ko'mak beradi.

Ushbu qaror ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi. Aholi bandligi va kambag'allikni qisqartirishni maqsad qilgan siyosatlar iqtisodiy o'sish va fuqarolar turmush darajasini oshirishga yordam

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-7428395>



beradi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi va ijtimoiy himoya tizimlarining takomillashuvi esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan yangi qarori mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu qaror orqali iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning mohiyati, turlari va ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini chuqur tahlil qilish orqali O'zbekiston iqtisodiyotida ushbu ehtiyojlarni qondirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliy takliflar tizimini shakllantirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. 2024-yilning birinchi choragi (yanvar-mart) bo'yicha O'zbekistonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari²

№	Ko'rsatkich nomi	2024-yil 1-chorak	O'zgarish (2023-yilga nisbatan)	Birlik
1	YalM hajmi	250,3 trillion so'm	+6,2%	trillion so'm
2	Sanoat ishlab chiqarishi	112,5 trillion so'm	+7,1%	trillion so'm
3	Qishloq xo'jaligi mahsuloti	38,7 trillion so'm	+4,8%	trillion so'm
4	Qurilish ishlari hajmi	25,4 trillion so'm	+12,3%	trillion so'm
5	Savdo aylanmasi	89,2 trillion so'm	+9,5%	trillion so'm

2024-yilning birinchi choragi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga doir umumiy ma'lumotlar quyidagilardan iborat. Joriy yil 7-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida birinchi chorak yakunlariga bag'ishlangan kengaytirilgan Hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilishda hisobot davrida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi atroflicha tahlil qilindi va mavjud yutuqlar hamda muammoli jihatlar muhokama etildi.

Hisobot davrida tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlar tizimli tarzda shakllantirildi. Ayniqsa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ifodalovchi jadvallarni o'z vaqtida yangilash, ularning aniqligi va dolzarbligini ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlandi. Bu esa mavjud axborot tizimlarini modernizatsiya qilish va statistik ma'lumotlar asosida tezkor tahlil olib borishga asos bo'ldi.

Yig'ilishda tashkiliy masalalar ham muhim o'rin egalladi. Xususan, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarmagan xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko'rish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi. Ayni vaqtda o'z ishini namunali tashkil qilgan, tashabbus ko'rsatgan va samarali faoliyat yuritgan xodimlar esa rag'batlantirildi, bu esa intizom va mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2024-yil 4-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida statistika idoralariga yuklatilgan vazifalar aniq belgilab berilgan bo'lib, ushbu qarorda nazarda tutilgan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar yig'ilishda muhokama markazida bo'ldi. Qaror ijrosi doirasida statistik organlar zimmasiga yirik hajmdagi ma'lumotlar bazasini yaratish, tahlil mexanizmlarini takomillashtirish va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish vazifalari yuklatilgan.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini shakllantirish va tahlil qilishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar alohida qayd etildi. Jumladan, statistik ma'lumotlarning hududiy kesimda aniqligi, sohalar bo'yicha tizimli tahlil qilish imkoniyatini beruvchi indikatorlar to'plamining mavjudligi va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligi ta'kidlandi. Shu asosda, statistika agentligi faoliyati strategik qarorlar qabul qilishda tayanch bo'lib xizmat qilishi kerakligi yana bir bor e'tirof etildi.

² (<https://stat.uz>)



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rne, shuningdek, dunyo mamlakatlarida ushbu ehtiyojlarni qondirish tizimlarini o'rganishga e'tibor qaratildi. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar – jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tizimida qondirilishi zarur bo'lgan asosiy ehtiyojlar to'plami bo'lib, ular aholi farovonligini ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va jamiyatda barqaror o'sishni rag'batlantirish uchun muhimdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish orqali ushbu ehtiyojlarni qondirish iqtisodiy o'sishning asosiy sharti ekanligi aniqlanmoqda. Aholi bandligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining rivoji kabi yo'nalishlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlat siyosatining ahamiyati katta bo'lib, samarali boshqaruv va resurslarning to'g'ri taqsimlanishi iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi.

Dunyo mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish tizimlari bir-biridan farq qiladi. Ammo rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida o'xshash tamoyillar mavjud. Rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSH, Yaponiya va Germaniya o'z siyosatlari orqali iqtisodiy o'sish va aholi ehtiyojlarini samarali qondirishga erishgan. Boshqa tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojlarni boshqarish mexanizmlarini shakllantirishda resurslar va siyosiy mexanizmlarni takomillashtirishga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bir qator islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar iqtisodiy o'sish va fuqarolar farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish nafaqat jamiyat farovonligini, balki iqtisodiy rivojlanishning ham asosiy omillaridan biri ekanini ko'rish mumkin. Samarali siyosat, innovatsiyalar va ijtimoiy himoya tizimlarining rivoji orqali jamiyatda barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6119-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5130468>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2024 yildagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-347-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7131782>
4. Shavkat Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" — Toshkent, O'zbekiston, 2017.
5. A. Sen. Development as Freedom. — Oxford: Oxford University Press, 1999. — 384 p.
6. M. Friedman. Capitalism and Freedom. — Chicago: University of Chicago Press, 1962. — 202 p.
7. P. Streeten. First Things First: Meeting Basic Human Needs in Developing Countries. — Oxford: Oxford University Press, 1981. — 290 p.
8. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi).
9. www.worldbank.org (Jahon banki).
10. <https://www.globalinnovationindex.org/analysis-indicator> (Jahon Intellektual Mulk Tashkilotining Global Innovatsiyalar Indeksi rasmiy sayti).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>